

**ABDULLA QAHHOR HAYOTI. “SAROB” ROMANI HIKOYALARI:  
“O‘G‘RI”, “BEMOR”, “ANOR” ASARLARI TAHLILI**

*Mardonova Bahor Ravshan qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi*

*1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, mohir hikoyanavis Abdulla Qahhorning hayot yo‘li va ijodiy merosi tadqiq etiladi. Maqolada adibning “Sarob” romani hamda o‘zbek hikoyachiligi xazinasidan munosib o‘rin olgan “O‘g‘ri”, “Be‘mor”, “Anor” kabi asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Muallif adib asarlaridagi ijtimoiy ziddiyatlar, inson ruhiyati tasviri va qahramonlar xarakterini ochib berishdagi mahoratini yoritib beradi.

**Abstract:** This article explores the life and literary heritage of Abdulla Qahhor, a prominent figure in Uzbek literature and a master of the short story genre. The paper provides a comprehensive analysis of the ideological and artistic features of the novel “Mirage” (Sarob), as well as the famous short stories “The Thief”, “The Patient” and “The Pomegranate”. The author highlights Qahhor’s skill in depicting social conflicts, human psychology, and the depth of character development.

**Аннотация:** В данной статье исследуются жизненный путь и творческое наследие выдающегося представителя узбекской литературы, мастера короткого рассказа Абдуллы Каххара. В работе проводится идейно-художественный анализ романа «Мираж» (Sarob), а также таких известных рассказов, как «Вор», «Больная» и «Гранат». Автор освещает мастерство писателя в изображении социальных конфликтов, раскрытии человеческой психологии и создании глубоких характеров.

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Qahhor, o‘zbek adabiyoti, “Sarob” romani,

*hikoyachilik mahorati, badiiy tahlil, ijtimoiy muhit, realizm, xarakter yaratish.*

Kirish. “Har bir millatning ma’naviy qiyofasi uning adabiyotida, buyuk so‘z san’atkorlarining merosida bo‘y ko‘rsatadi”.

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida Abdulla Qahhor siymosi nafaqat mohir hikoyanavis, balki millat dardini badiiy so‘zning keskir tig‘i bilan yoritib bergan ulkan realist sifatida namoyon bo‘ladi. Agar jadid bobolarimiz xalqni jaholat uyqusidan uyg‘otish uchun ma’rifat mash’alasini yoqqan bo‘lsalar, Abdulla Qahhor bu an’anani yangi davr sharoitida, yuksak badiiy mahorat darajasida davom ettirdi. U o‘zining mitti hikoyalarida butun bir davrning fojiasini, ijtimoiy tuzumning ziddiyatlarini va inson ruhining murakkab qatlamlarini mahorat bilan chizib berdi. O‘zbek adabiyotining zabardast vakili Abdulla Qahhor 1907-yili 17-seniyabrda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrida dunyoga kelgan. Abdulla Qahhorning otasi Abduqahhor temirchi bo‘lgan. Lekin bu kasbdan oladigan daromad tirikchilik uchun kifoya qilmagani sababli u doim ish izlab qishloqmaqishloq ko‘chib yurgan. Shu tufayli Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursuh, Kudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg‘unzor, Oqqo‘rg‘on kabi Qo‘qon atrofidagi qishloqlarda kechgan. Kechqurunlari otasi Abdullaga suratli eski kitoblardan hikoyalar o‘qib bergan. Qiyinchiliklarga qaramay, otasi Abduqahhor Jalilov va onasi Rohat aya o‘g‘liga boshlang‘ich ta’limni bera olishgan. U o‘n yoshga to‘lganda Buvaydadagi eski maktabga o‘qishga kiradi, biroq ko‘p o‘tmay oila Oqqo‘rg‘onga ko‘chadi. Oqqo‘rg‘on maktabida Abdulla qo‘qonli Muhammadjon qorining usuli savtiya maktabida tahsil ko‘rdi. Muhammadjon qori ilg‘or fikrli ma’rifatparvar odam bo‘lgan. U geografiya, matematika kabi ilmlarni ham bolalarga o‘qitgan. Ayniqsa, shogirdlarida sharq adabiyotiga qiziqish uyg‘otishga uringan. Shu boisdan bo‘lsa kerak, Abdulla Qahhor umrining ohirigacha Sa’diy va Xayyom, Hofiz va Bedil, Lutfiy va Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini qo‘ldan qo‘ymay mutolaa qilar, ularning ancha-munchasini yod bilar va o‘rni kelganda ulardan parchalar keltirib, fikrini dalillar edi. Shundan so‘ng Abdulla Qo‘qonda yangi ochilgan “Istiqbol” maktab internatida o‘qiy boshlaydi, bu internat Abdullaning zehni yanada o‘tkirlashtirdi. 1922-1924-yillarda Abdullada

adabiyotga qiziqish avj ola boradi. Bu yillarda u Qo‘qon pedtexnikumida o‘qidi, umrida birinchi marta Pushkin, Gogol, Turgenev, Tolstoy asarlaridan xabardor bo‘ldi. Texnikumda chiqadigan “Bilim yurti” devoriy gazetasiga she‘rlari va maqolalari bilan tez-tez qatnashib turdi. Abdulla Qahhor 1926-yilda ishchilar fakultetiga o‘qishga kiradi va uni tugatib yana jurnalistik faoliyat bilan shug‘ullanadi. U 1934-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakultetida tahsil oladi. 1923-yilning dekabr oyida “Mushtum” jurnalida Abdulla Qahhorning birinchi felyetoni bosildi. Shundan keyin u respublika matbuotida “Gulor”, “Yalangoyoq”, “Norin shilpiq”, “Mavlon kufur”, “Nish” kabi taxalluslar bilan tez-tez felyetonlar, satirik she‘rlar, hikoyalar e‘lon qila boshladi. 1925-yilda “Qizil O‘zbekiston” gazetasi uni Toshkentga gazeta tahririyatida ishlashga taklif etadi. Gazetaning Abdulla Qahhorning yozuvchi sifatida shakllanishida katta o‘rin tutadi. Abdulla Qahhor adabiyot olamiga hikoya janrining tengsiz ustasi bo‘lib kirdi. Yozuvchini hatto o‘zbek Chexovi deb ham atashadi. Uning ilk kitobi “Qishloq hukm ostida” nomli kichik qissa 1932-yilda nashrdan chiqqan. Shundan so‘ng Abdulla Qahhorning “Olam yasharadi” va “Tangrining kulgisi” degan to‘plamlari bosildi. Adibning “Boshsiz odam” hikoyasi ayol qadr-qimmatini, ozodligini kuylovchi asar hisoblanadi. Yozuvchining 30-yillar ijodida ilk romani – “Sarob” yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu roman keng mavzuli bo‘lib, o‘sha davrdagi hayot manzaralarini real tasvirlagan, voqealar tasvirida haqiqatni saqlab qolgan. Abdulla Qahhor ijodiy hayoti mobaynida 40 dan ortiq asar yozgan. Bu kitoblar orasida 30 taga yaqin hikoyalar bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotida hikoya janrining badiiy ufqlarini kengaytirgani bilan ahamiyatlidir. “Asror bobo”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Xotinlar” hikoyalari va “Oltin yulduz” kabi qissalarida o‘zbek jangchilarining mardligi, halqimizning mehnatdagi jonbozligi, yuksak vatanparvarligi ifodalangan. Yozuvchining urushdan keyingi yillarda yaratgan “Qo‘shchinor chiroqlari” (1951) romani va “Sinchalak” (1958), “Muhabbat” (1968), “O‘tmishdan ertaklar” (1965) qissalari, “Boshsiz odam”, “Anor”, “Bemor”, “Dahshat”, “O‘g‘ri”, “Millatchilar”, “San‘atkor”, “Adabiyot muallimi”, “O‘jar” kabi hikoyalari o‘zbek nasrining taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib

qo'shildi. Abdulla Qahhor 1938-1939-yillar Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatrining adabiy bo'limiga boshchilik qiladi. U o'zining "Shohi so'zana" (1951), "Og'riq tishlar" (1954), "Tobutdan tovush" (1962), "Ayajonlarim" (1967), "So'nggi nusxalar" komediyalari bilan o'zbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Ayniqsa, "Shohi so'zana" hajviy pyesasi respublika va qator xorijiy mamlakatlar sahnalarda muvaffaqiyatli namoyish qilingan. 1968-yilning 25-may kuni Abdulla Qahhorga "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoni berilgan. U 1968-yil 25-may kuni Moskvada 61 yoshida vafot etgan. Yozuvchi vafotidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

Abdulla Qahhor oz g'oyasiga mos keladigan qahramonlar tanladi. U izlanuvchan shaxs, biroq izlana turib, tez-tez adashadi. Aksariyat hollarda arosatda qoladi. Ba'zan xudbinlik kayfiyatiga beriladi, og'machilik, o'zgaruvchanlik ham uning xarakteriga yot emas edi. Asarda tasvirlanishicha Saidiy soxta shon-shuhrat va boylik orqasidan quvib tuzoqqa ilinadi. Yashirin tashkilot rahbarlaridan biri bolgan Muxtorxonning singlisi Munisxonni sevib qoladi. Talabachilik choglarida ikki yosh bir-birlariga ko'ngil qo'yadilar. Biroq, Saidiyning Munisxonga bo'lgan hislari g'ayritabiiy, faqat xudbin va razil odamlarga xos bolgan xislatlardan edi. U Munisxonga nisbatan o'ylardi. Qizning boshiga bir ish tushsa-yu, uning qutqarib qoluvchi faqat o'zi bo'lsa. Biroq, bunday hodisalar aslo ro'y bermaydi. Bora-bora ulaning bir- biriga bo'lgan munosobatlari soviy boshlaydi. Endilikdan Saidiy Munisxondan kamchilik va nuqsonlar qidirishni boshlaydi va topganday ham bo'ladi. Munisxon ham Saidiyning yaxshi fazilatlari ko'rmaydigan kamchilik va nuqson qidiradigan bo'lib qoladi. Bu orada Munisxonning akasi Salimxonning tavsiyasi bilan "xotinchalish"<sup>1</sup> deya e'tirof etilgan Muxtorxonga turmushga chiqish taklifi beriladi. Munisxon esa Muxtorxonni kamchilik va nuqsonlariga qaramasdan uning yaxshi fazilatlarini qidirar edi. Muxtorxon go'yo Munisxon uchun ideal insondek ko'rinadi. Saidiy izzattalab va manman shaxs. Hayotining ilk bosqichlarida Saidiy o'sha davr tushunchasi bilan aytganda ijobiy qahramaon deb ataluvchi Ehson Sharif va Kenjalar bilan yaqin bo'ladi. Aslini olib qaraganda esa

---

<sup>1</sup> Abdulla Qahhor "Sarob" romani 65-bet.

<https://scientific-jl.com/>

ular samimiy kishilar emas edi. Saidiyga nisbatan munosobatlari xolis va xayrixoh biroq ulardagi fazilatlarni maxtab ko'klarga ko'tarishni, laganbardorlik qilishni xohlamas va xushlamas edilar. Shu boisdan bo'lsa kerak Saidiy ulardan uzoqlashdi. Saidiy kitob yozishni xohlar uning kitoblari qo'ldan qo'lga o'tib o'qilishini, o'zi esa mashhur bo'lib ketishni xohlar edi. Ammo bu yo'ldagi harakatlari xarakter mos emas edi. "Sarob" asosiy obrazi Saidiy bilan birgalikda Murodxo'ja domla, shaharda maorif bo'lim mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbasxon, tergovchi Mirza Muhiddingozal va baxtsiz qiz Munisxon timsollari ham yaratilgan befarosat va sovuqgon kelin Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi obrazlar ochib berilgan. Yozuvchi har bir qaharamoniga alohida ta'rif alohida xarakter bilan yondashadi. Hattoki ularni ichki psixologiyasigacha ochib beradi. Davr "dohiychilik" davri edi. Saidiy Abbasxonlar guruhiga qo'shildim deguncha faol harakatga tushdi. Bu o'rinda o'ylab ko'rish kerak bo'lgan-gap borga o'xshaydi. "Sarob" bitilgan davr ikki dohiy bor edi-biri Lenin va Stalinga sajda qilardik. Adabiyotning ham o'zini dohiysi bor edi-Gorkiy. Saidiy Munisxonga erisha olmaganidan so'ng Murodxo'ja domlaning oilasiga yaqinlashadi. Murodxo'ja domla unga mashhurlikni vada qiladi. Murodxo'ja domla Saidiyga taklif beradi u taklif shunday edi: Uning bir qizi bor edi uning ismi Soraxon edi. Ushangga uylanishi kerak edi. Soraxon shunday tariflangan: Eng ozg'inlarning ozg'ini, gavdasini oldingga tashlab yurar, qo'llari odatdagidek emas, balki qorni ustida turardi, ko'ylak kiyganda esa ko'ylagidan chiqib turgan oyoqlari sava chopga o'xshab qiltillab tur u kelayotganida esa orqa tomonida qaragan odam Soraxon juda og'ir yuk ko'tarib kelayotgan shaxsga o'xshatar edi. Uning jingalak ikki o'rim sochlari yana farqini ochib olgan edi. Lablari ingichka kulganda ozgina jimirlilib turar, gapirayotganda esa pichirlagandek bo'lib qolardi. Soraxon jismonan nosog'lomdir, balki manan ham nosoglom.<sup>2</sup> Jamiyat-u dunyo bilan ishi yo'q. Saidiy ancha-muncha bilimga ega shaxs u Murodxo'ja domla uchun shunchaki ergashuvchi shaxs deb qaralgan. Undan o'z manfaatlarida foydalangan. Saidiy Soraxon bilan turmush quradi. Undan yaxshi fazilatlar qidiradi. Shu o'rinda

---

<sup>2</sup> Abdulla Qahhor "Sarob" romanidan.

<https://scientific-jl.com/>

Soraxonni Saidiyga aytgan gapini keltirib o'tish lozim: Saidiyning oldiga kelib kosatkich panjasini peshonasiga tirab “Boqsa odam bo‘lasan”<sup>3</sup> deb kulib qo‘yadi. Aqlan nosog‘lom bo‘lsa ham Soraxon Murodxo‘ja domlani qizida Saidiydan manfaat kelishini bilgandek go‘yo. Soraxon Saidiyga yoqish uchun harakat qilar unga choy olib kirar edi. Ammo Saidiy bularga parvo qilmasdi. Ishlari-ku o‘xshamagan edi, ayni shu chog‘da hayoti ham chappasiga ketayotgandek edi. Saidiy bu asarda orzulari sarobga aylangan shaxs sifatida gavdalanadi. Saidiy qat‘iyatsiz kishi, shu tufayli sevgilisidan ham misqinlab topgan obrosidan ham ajraladi. O‘g‘il bola oila posponi u qat‘iyatli bo‘lmog‘i joizdir. Saidiy orzu umidlarini ro‘yobga chiqaradidan shaxs deb Muridxo‘ja domlani biladi. Saidiyning hayoti asar oxirida ma‘naviy jihatdan oxirlab qoladi. Xaligacha hech bir asar qahramoni hayoti Saidiyning hayoti kabi yakunlanmagan.

Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi 1936-yilda yozilgan. Undagi ijtimoiy nuammolar hozirgi kunimizda ham o‘z dolzarbligini yo‘gotmagan. Hikoya bir garashda oddiy vogeadan – ya‘ni kambag‘al bir Qobil boboning ho‘kizi og‘irlanishi bilan boshlanadi. Ammo bu sodda syujet ortida o‘sha davr jamiyatining mohiyati, oddiy xalq va mansabdorlar o‘rtasidagi chuqur tafovut, muammolarga befarqlik, poraxo‘rlik, amalparastlik kabi illatlar yotadi. Qobil bobo halol delqon, hayotini ho‘kizi bilan bog‘lagan. Unga ho‘kiz nafaqat moliyaviy manba, balki hayotining o‘ya‘ni o‘zi, orzu-umidi, kuch-qudratining timsoli. Shu sababli ho‘kizning yo‘qolishi - Qobil bobo uchun hayotiy fojidadir. Lekin uning dardini tushunish o‘rniga, amaldorlar bu holatdan foyda ko‘rishga urinadi,

Ellikboshi, amin, pristav va boshga arboblari o‘zlarini yelkadoshdek ko‘rsatib, go‘yoki yordam bermoqchidek tutinishadi, ammo bularning barchasi faqat Qobil bobodan pul, sovg‘a va duo olish uchun qilinadi. Asarda shunday joy bor: “Ho‘kizing yo‘qolmagan, topiladi”<sup>4</sup>. Yoki Qobil bobo yig‘layotgan bir paytda, burunsiz ellikboshining “Ho‘kizing oq podshoning qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa topiladi”<sup>5</sup>- degan gapi soddagina Qobil bobo hayolida ho‘kizni naqt qilib

---

<sup>3</sup> Abdulla Qahhor “Sarob” romanidan.

<sup>4</sup> Abdulla Qahhor “O‘g‘ri” hikoyasidan. 6-sinf adabiyot darsligi.

<sup>5</sup> Abdulla Qahhor “O‘g‘ri” hikoyasidan. 6-sinf adabiyoti darsligidan.

qo'yadi. Bu gaplarni eshitgandan so'ng Qobil bobo ho'kizining topilishiga ishonadi. Ammo barcha ho'kizi sababli unda foydalanadi.

Har bir amaldor unga umid bag'ishlaydi, ammo bu yolg'on umid bo'lib chiqadi. Ular o'z vazifasini bajarayotgandek ko'rinadi, lekin aslida hech kim hech narsa qilmaydi. Shunchaki kambag'al odammi talashadi. Bu yerda Abdulla Qahhor o'quvchiga chuqur fikr berib ketadi - haqiqiy "o'g'ri" kim? Ho'kizni devor teshib olib ketgan kishi emas, balki xalqning og'ir holatidan, muammosidan foydalanib undan foyda ko'radigan amakdorlar haqiqiy o'g'ridir. "O'g'ri" nomi ramziy ma'no kasb etadi. U biz kutgan voge o'g'risiga emas, balki hayotni o'g'irleydigan, xalq ishonchini o'maradigan mansabdor shaxslarga ishora qiladi. Ammo bir e'tiborli jihati - hikoyada xalqning ishonuvchanligi, og'ir holatga tushganda baribir umid bilan yuqori tizimga yuz tutishi, haqiqatni ulardan kutishi tasvirlanadi. Qobil boboning kampiri Azayimxonga qatnashi, duo qilishlari, sovg'alar berishlari bular xalqning chorasizligini, najotni fagat boshqalardan kutishini ko'rsatadi. Muallif bu orqali xalqni ham uyg'onishga, o'z haqiqatini o'zi talab qilishga undayotgandek tuyuladi.

Asarda ishlatilgan maqollar, boralar ham hikoyaning mazmunini yanada chuqurlashtiradi. Masalan, "Otning o'limi - itning bayrami"<sup>6</sup> degan epigraf butun hikoyaning asosiy g'oyasini mujassamlashtiradi. "Ot" - halol, mehnatkash xalq bo'lsa, "it" - ularning boshiga kulfat tushgan paytda undan foyda ko'radigan amaldorlardir yoki "Dehgonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin" degan jumla orqali hokizning ahamiyati, xalq hayotidagi o'rni chuqurroq ochib beriladi. Qobil boboga oxir-ogibat bir emas, ikki ho'kiz beriladi. Ammo bu "muruvvat" orqasida ham yana bir shart, manfaat yashiringan edi. Bu shart "kuzda ma'lum bo'ladi" degan jumla orqali muallif tomonidan mahorat bilan ochiq qoldiriladi. Ya'ni hech bir yordam bepul emas, hatto shafqat ortida ham shaxsiy foyda yotadi.

Hikoya bizga shuni o'rgatadiki, hayotdagi haqiqiy "o'g'ri" - bu nafaqat mol-mulkni o'g'irlovchi kimsalar, balki odamlarga yolg'on umid berib, ulardan moddiy yoki ma'naviy manfaat ko'ruvchilardir. Bu esa bizni jamiyatning tub masalalari -

---

<sup>6</sup> Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasidan. 6-sinf adabiyoti darsligidan.

<https://scientific-jl.com/>

adolat, halollik, halol mehnat insoniy munosabatlar haqida chuqurroq fikr yuritishga undaydi. Qobil boboning ho'kizi bir hayvon emas - u xalqning umri, umidi, mehnat qudrati, hayotining ma'naviy asosidir. Yo'qolishi bir insonning butun dunyosining qulashi bilan barobar. Ammo eng achinarlisi yo'qotishga hech kim chin dildan hamdard emas. Yordam va'da qilganlarning har biri aslida faqat o'z foydasini ko'zlaydi. Yordam va'dalari orqasida manfaat, pora, sovg'a turgani har jabhada ayon bo'ladi. Adib bu holatni juda chuqur va badiiy lashtirilgan uslubda ko'rsatadi. Har bir obraz orqasida hayotiy timsollar yashiringan. Amin, ellikboshi, pristav kabi obrazlar o'sha davr jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi tanqid ostiga olinadi. Qobil bobo esa xalqning ramzi sanalib, u zo'ravonlik, befarqlik va ustidan kulishga dosh berayotgan, hayotda haqiqat istab yashayotgan mehnatkash odam timsolidir.

Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi 1936-yil yozilgan. Ushbu davrda mamlakatimiz SSSR davlatining qaramog'ida edi. Insonlar och-nahor, bir burda nonga zor bo'lganlar. Shu sababli ham insonlar pul topish ilinjida o'g'irlik firibgarlik kabi illatlarni o'zlariga kasb qilib olgan edi. Sotiboldining xotini bir kuni og'ir kasal bo'lib qoladi. Sotiboldi xotini o'qitdi, ammo bundan bir naf bo'lmaydi. So'ngra tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Ayolning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qiydi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savalaydi, tovuq suyib qonlaydi. Ushbu parchada bir amallab "tabib" nomini olgan kimsa, yuqorida keltirilganidek ayolning qanday kasal, nima bilan o'g'riyotganini bilmasdan turib o'zi tashxis chiqarib undan qon oldi. Buning oqibatida esa ayolning ahvoli battar yomonlashdi, "ko'zi tinib" boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Hatto, o'zi ham kim ekanligini bilmaydigan allaqanday bir xotin kelib og'ir ahvolda yotgan ayolni uni savalaydi. Bu g'irt axmoqqarchilik. Ulardan so'ng xonadonga baxshi keladi. U xotinni yoniga o'tib bir narsalar o'qiydi, lekin u o'qiyotgan o'qigan narsalar ayolning ahvolini zora yaxshilasa, unga yaxshiladimi, yo'qmi uni zarracha bo'lsa ham qiziqtirmaydi.

Axir kasal xotinni kelib-kelib tolning xipchini bilan savalaydimi? Bu bemor uchun yordam bera oladimi? Hamma joyda ochlik hukum surayotgan bir paytda

ayolning ahvoli hech kimni qiziqtirmaydi. Tovuq so'yib qonini oqizish bilan ayolga tekkan dardning o'rtasida nima aloqa bor deb inson beixtiyor o'ygachumadi. Bularning qilayotgan ishlari hammasi soxta "tabiblar"ga ayolning o'lishi yoki qolishining qizig'i yo'q, ular faqat pul uchun shunday razilikka qo'l urgan edi. Holbuki, ular bunday "davolash usuli" birgina Sotiboldining xotiniga emas, balki butun o'sha atrofda yuzlab bechoralarga ham qilishgan. Baxshi esa kimning yoniga chaqirilsa, ushanning yoniga borib o'zi yodlab olgan narsalarni o'qib, chiqib ketavergan. Ko'rinib turibdiku Sotiboldining bilgani shu: salgin, tinch parkda daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli imorat shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi.

Bundan kelib chiqib, butun boshli shaharda birgina kasalxona borligini ko'rishimiz mumkin. Bu ham o'sha 20-asrning dastlabki yillari Chor Rassiyasiga qaramligimiz tufayli tibbiyot masalalarini hal qilishga deyarli e'tibor berilmas edi, chunki xalqimiz moliyaviy jihatdan judaqashshoq edi. Shuning uchun ham iqtisodiy nochorlik kishilar turmush darajasining tobora pasayib borishiga, aholi o'rtasida turli kasalliklar keng tarqalib, oddiy kasallik ortidan odamlar bevaqt hayotdan ko'z yumib ketishiga sabab bo'lgan.

Har bir davrda bo'lganidek, aynan mana shu yillarda ham aholi o'rtasida tabaqalanish keng avj olib, tibbiy xizmatdan faqatgina chor amaldorlar, harbiylar va mahalliy boylargina foydalana olar edi. Bunday sharoitda esa Sotiboldiga o'xshagan oddiy xalqning nochor odamlari kasalxonaga borib shifo topishni emas, balki doktorxona uchun 25 so'mlik pul topish ilinjida yurar edi. Shunday paytda Sotiboldining birgina najoti xo'jayini Abdug'aniboy edi. Lekin u yordam berish o'rniga qandaydir devona Bahovuddinga hech narza ko'tardingmi deya savol beradi.

Abdulla Qahhorning e'tiborga loyiq hikoyalaridan biri "Anor" 1936-yilda yozib tugatilgan. Hikoya epigraf bilan boshlanadi: "Uylar to'la non, och-nahorim bolam, ariqlar to'la suv, tashnai zorim bolam" (O'tmishdan)<sup>7</sup>. Bu misralarning

---

<sup>7</sup> Abdulla Qahhor "Anor" hikoyasidan.

<https://scientific-jl.com/>

o'ziyoq asarning asosiy g'oyasiga ishora qiladi: to'kinlik bor, ammo adolat yo'q, baxt-saodat, farovonlik ko'pchilikka yetib bormayapti. Bu keskin kontrast ziddiyatli davr manzarasini chizadi. O'quvchi bu epigrafni o'qishi bilan beixtiyor hikoya mazmuni his etib tushunishni boshlaydi. Asarning markazida Turobjon va uning homilador bo'lgan xotini turadi. Bu oila o'zbek adabiyotidagi kambag'al, nochor oila timsoli sanaladi. Turobjon obrazining fojiasi: U dehqonning uyini kuydirib, ammo ho'kizini yo'qotmaganlik haqidagi xalq maqolini eslatuvchi sharoitda yashaydi. Turobjon mehnatkash, ammo qashshoqlik uni o'rab olgan. U xotinig boshqorong'ilik paytida yegisi kelgan anorni topib bera olmaydi. Anor — oddiy bir meva, ammo Turobjonning qo'li uni sotib olishga kaltalik qiladi. U xotining ko'nglini olish uchun xo'jayinidan iltimos qilib olib kelgan asal ham uning xotinig tatimaydi. Asal boylik, to'kinlik ramzi bo'lsa-da, u xotining asl orzusini qondira olmaydi. Eng achinarlisi, Turobjonning o'zini ojiz his qilishi, g'ururining poymol bo'lishi. Xotini achchiq qilib, “Anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo'lsa! Saharimardondan suv tashib, o'tin yorib, o't yoqib bir oyda oladiganim o'n sakkiz tanga pul. Akam bo'lmasa, ukam bo'lmasa”<sup>8</sup> deb turishini g'ururiga og'ir botadi. Natijada, u og'ir ahvolda qolib, hatto o'g'rilikka qo'l urishga majbur bo'ladi (garchi bu bevosita tasvirlanmasa-da, hikoya yakunida bir xalta anor ko'tarib kelishi shunga ishora qiladi). Bu holat ijtimoiy nochorlikning insonni qanday fojialarga yetaklashi, uning shaxsiyatini, g'ururini yemirishi tasviridir. Xotin obrazi: Uning boshqorong'iligi oddiy istak – anor yeyish istagi bilan bog'liq. Anor uning uchun nafaqat tansiq meva, balki baxt, farovonlik va erining mehrining ramzi bo'lib qoladi. Uning anorga bo'lgan orzusi amalga oshmagach, nafaqat eriga achchiq qiladi, balki o'zini ham qarg'aydi: “Bu yer yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsam-chi!” Bu nola qashshoqlikning naqadar dahshatli ekanini, hattoki oddiy insoniy istaklarga va oddiy narsalarga erisha olmasligiga ham yo'l bermasligini ko'rsatadi. Uning yig'lab yuborishi, keyin eriga qattiq gapirganiga pushaymon bo'lishi, uni o'lim tilashgacha borishi – bu ruhiy iztirob va nochorlikning

---

<sup>8</sup> Abdulla Qahhor “Anor” hikoyasidan.

<https://scientific-jl.com/>

ifodasidir. Anor ramzi: Anor shunchaki meva emas, u farovon hayot, to'kinlik, orzu ramzi sanaladi asarda. Kambag'al Turobjon uchun bu meva oltinga teng, uni topib bera olmaslik esa uning ijtimoiy ojizligi va g'ururining poymol bo'lishini anglatadi. Garchi anor oddiy meva, asal undan 10 karra qimmatli bo'lsa ham o'sha davr uchun noyob meva edi. Ya'ni anorni topish hammaning ham qo'lidan kelmas edi. Abdulla Qahhor hikoyada realizmning yuksak namunasi ko'rsatgan. U qahramonlarning ichki kechinmalarini, ularning kundalik hayotini nihoyatda jonli, ta'sirchan detallar orqali tasvirlaydi va o'quguvchi qalbining tub-tubigacha yetib boradi. Yirtilgan yaktak: Turobjon eshikdan kirib, yangi yaktagining yengini yirtib olishi. Bu kichik detal uning shoshqaloqligi, xotiniga bir narsa olib keldim, deb shoshilayotgani, ammo natijada uning harakatining ham bevosh ketishi, hatto o'ziga ziyon yetkazishini ifodalaydi. Yirtilgan yaktak ham kambag'allikning ramzi, uning g'ururiga ikkinchi bir og'riqdir. To'kilgan jo'xori: Xotining shoshilib turib kelisopni qo'yib yuborishi va jo'xorining to'kilishi. Bu ham bexosdan bo'lgan noqulaylik, ularning qashshoqligi sharoitida har bir donaning qadri borligini eslatib, vaziyatning fojiviy tus olishiga xizmat qiladi. Oqsoq mushuk: Hovlida aylanib yurgan, to'kilgan jo'xorini iskab ko'rib, qanoatlanmay "myau" degan oqsoq mushuk obrazi ham asardagi nochorlik muhitini yanada kuchaytiradi. Mushuk ham, xuddi qahramonlar kabi, to'yib yashay olmasligiga norozidek, go'yo. Abdulla Qahhor Turobjon va xotining ruhiy holatlarini, ularning ichki kurashini ochiq aytmasdan, dialoglar va kichik harakatlar orqali mohirlik bilan beradi. Xotining yig'lab yuborishi, Turobjonning qizarishi, yaktakning yirtilgan yengiga ko'zi tushib yuragining achishishi – bularning hammasi qahramonlarning og'ir ruhiy kechinmalarini ko'rsatib beruvchi bir vosita. Abdulla Qahhorning tili sodda, xalqona, ammo nihoyatda ta'sirchan va aniq. Xajv va kinoya asar g'oyasini ochishda muhim o'rin tutadi. Turobjonning asalni "Akajon, degin!"<sup>9</sup>, deb hazil qilishi ortida o'zining kambag'alligidan xijolat chekish yotadi. "Anor" hikoyasi shaxsiy fojia ortida turgan ijtimoiy fojiani qalamga olgan. Buyuk tanqidchi Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, Turobjon va

---

<sup>9</sup> Abdulla Qahhor "Anor" hikoyasidan.

<https://scientific-jl.com/>

xotining fojiasi ijtimoiy tengsizlikning mahsulidir. Boylarning to'kin-sochinligi, "Mullajon qozining bog'i" (anorzor), shahardan chiqqan to'ralarning dabdabasi (beshik to'yi) – bularning barchasi qashshoqlikdan azob chekayotgan Turobjon oilasining nochorligi bilan keskin qarama-qarshi qo'yiladi.

Qahhor bu asarida o'sha davr (XX asr boshlari) o'zbek jamiyatidagi ocharchilik, qahatchilik, qashshoqlik kabi illatlarni ochiq ko'rsatadi. Kambag'allik Turobjonni o'z g'ururidan kechib, eng yomoni — to'g'ri yo'ldan adashishga, o'g'rilikka (asardagi taxminiy yakun) undaydi. Bu yerda jamiyat tuzumi insonning hayotini naqadar xarob qilishi, uni qanday tubanliklarga yetaklashi ko'rsatiladi. "Anor" hikoyasi Abdulla Qahhor ijodining eng yorqin sahifalaridan biridir. U kichik bir epizod — homilador xotinning bir dona anor yeyish istagi va erining bu istakni bajara olmasligi orqali katta ijtimoiy muammoni, insoniy g'urning poymol bo'lishi fojiasini tasvirlaydi. Asar kishini o'ylantiradi, achinish, mehr-shafqat tuyg'ularini uyg'otadi va o'z davrining achchiq haqiqatini yuzaga chiqaradi. Qahhorning bu asari, shuningdek, nafaqat o'tmishni, balki bugungi to'kinchilik sharoitini qadrlash va shukronalik hissini tuyish lozimligini ham eslatadi.

Asarlardan olgan xulosam, Abdulla Qahhorning 1930-yillardagi ijodi o'zbek adabiyoti tarixida realistik epik tafakkurning yuksak namunasi sifatida baholanadi. Uning "Sarob" romani (1935) hamda "O'g'ri", "Bemor", "Anor" (1936) kabi hikoyalari shunchaki adabiy asarlar emas, balki XX asrning murakkab ijtimoiy-siyosiy davri ruhini o'zida mujassam etgan, inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib beruvchi noyob badiiy-hujjatlardir. Bu asarlar adibning "Qahhor maktabi" deb nomlangan alohida ijodiy uslubining asosini tashkil etadi. Bosh qahramon Saidiy obrazi Qahhorning eng murakkab psixologik qahramonlaridan biridir. U eski maktab tarbiyasini olgan, ammo zamonaviy g'oyalarga intilgan shaxs. Uning fojiasi eski urf-odatlar va yangi mafkura o'rtasida arosatda qolganligidadir. Saidiyning hayot ideallari ("Sarob" kabi) amalga oshmay, uning ma'naviy qulashiga sabab bo'ladi. Taniqli olim Ubaydulla Uvatov o'z tahlillarida "Sarob"ni o'sha davr adabiyotida mavjud bo'lgan "qahramonlashtirish" an'anasidan keskin

farq qiladi, deya ta'kidlaydi. Uning fikricha: “Qahhor romanda qahramonni ideallashtirmaydi, aksincha, uni ziddiyatlarga to'la, xatolar qiluvchi, mag'lub shaxs sifatida ko'rsatadi. Bu esa o'zbek adabiy tanqidiy realizmi uchun yangi yo'nalish edi”. “Anor” hikoyasining markaziy detali — anor – oddiy meva emas, balki qashshoqlik va to'kinlik o'rtasidagi o'tib bo'lmas devor ramzidir. Turobjonning kambag'alligi uni o'z ayoliga mehrini ko'rsatishdan mahrum etadi. Bu asar ijtimoiy-maishiy mavzuda bo'lsa-da, g'oyaviy jihatdan “qashshoqlik insonni jinoyatga undaydi” degan shafqatsiz haqiqatni tasdiqlaydi. “O'g'ri” hikoyasining o'ziga xosligi shundaki, u jinoyatchini qahramon qilmaydi, balki uning ichki dunyosidagi kurashni fosh etadi. Hikoyada o'g'rilik qilishga majbur bo'lgan shaxsning qo'rquvi, uyati va vijdon azobi juda ta'sirchan tasvirlanadi. Adabiyotshunos Naim Karimov Qahhor hikoyalarning badiiy ta'sirini tahlil qilib: “Qahhor qahramonni qisqa holatda beradi, lekin bu holat shu qadar kuchliki, biz uning butun o'tmishi, ijtimoiy ildizlari va kelajakdagi fojiasini his qila olamiz”<sup>10</sup>. “O'g'ri” hikoyasidagi psixologik moment, bu – bir lahzalik jinoyatning inson ruhida qoldirgan o'chmas izi haqidagi epik lavhadir.” deb yozadi. “Bemor” hikoyasi esa Qahhorning satirik mahoratini namoyish etadi. Asar kasallik va o'lim atrofidagi odamlarning chirkin, munofiq xatti-harakatlarini qalamga oladi. Bemorning o'zi ikkinchi planga tushib qoladi, birinchi o'rinda esa uning atrofidagi g'iybatchi, soxta hamdardlik bildiruvchi “qo'shnilar” turadi. Bu davr totalitarizm kuchaygan, har qanday tanqid taqiqlangan davr edi. Qahhor o'z satirasini to'g'ridan-to'g'ri siyosatga yo'naltirmay, balki maishiy hayotdagi ma'naviy illatlarni (“o'zbeklarning qirq qo'shaq xislatlari”ni) fosh etish orqali jamiyatni tanqid qiladi. Be'mor atrofidagi g'iybatchilar, aslida, ijtimoiy ikkiyuzlamachilikning ko'zgu sidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Qahhor. “Sarob” romanidan. – Toshkent, 1936.
2. Abdulla Qahhor. “Anor”, “Be'mor” va “O'g'ri” hikoyalardan. – Toshkent,

---

<sup>10</sup> Naim Karimov.

<https://scientific-jl.com/>

1936.

3. Abdulla Qahhor. “Anor” qissa va hikoyalar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024.
4. Irina Borolina. Abdulla Qahhorning ijodkorlik inshosi. – Toshkent, 2020.
5. Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur tadriji, an‘analik, vorislik, o‘ziga xoslik: Abdulla Qodiriy va Tog‘ay Murod ijodi misolida. – Toshkent.
6. Shuhrat Sirojiddinov. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi. – Toshkent, 2021 .